

## SHE'RIY SAN'ATLARNI TASNIFFLASH MASALASIGA DOIR

Xabibullayeva Shoira Shukurillayevna

TISU o'qituvchisi.

e-mail: [shoiraxabibullayeva@gmail.com](mailto:shoiraxabibullayeva@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14238154>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek mumtoz adabiyotida she'riy san'atlar mavzusi haqida gap boradi. Qanday san'atlar lafziy san'at, qanday san'atlar ma'naviy san'at, qanday san'atlar qorishiq san'at deyilishi haqida babs-munozaralar xususida ilmiy fikr yuritilgan.

Mumtoz she'riyatda mavjud she'riy san'atlar va ularning tasniflanishi xususida fikr yuritilgan.

**Tayanch so'z va iboralar:** She'riy san'atlarni tasniflash, A. Husayniy, "Badoyi'-us sanoyi", A.Hojiahmedov, "She'riy san'atlar va mumtoz qofiya", A.X. Taroziy, "Funun ul balog'a", Jomiyning "Bahoriston" asari.

### ON THE ISSUE OF CLASSIFICATION OF POETIC ARTS

**Abstract.** This article examines the topic of poetic art in Uzbek classical literature. It discusses the scientific opinion about what art is called verbal art, what art is called spiritual art, and what art is called mixed art. In classical poetry, there is an opinion about the existing poetic arts and their classification.

**Key words and phrases:** Classification of poetic arts, A. Husayniy, "Badoe us-sanoe", A. Khodjiakhmedov, "Poetic art and classical rhyme", A.H. Tarazi, "Funun ul baloga", "Baharistan" by Abdurakhman Jami.

### К ВОПРОСУ КЛАССИФИКАЦИИ ПОЭТИЧЕСКИХ ИСКУССТВ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается тема поэтического искусства в узбекской классической литературе. Обсуждается научное мнение о том, какое искусство называется словесным искусством, какое искусство называется духовным искусством, а какое искусство называется смешанным искусством. В классической поэзии существует мнение о существующих поэтических искусствах и их классификации.

**Ключевые слова и выражения:** Классификация поэтических искусств, А.Хусайнин, «Бадое ус-саное», А. Ходжиахмедов, «Поэтическое искусство и классическая рифма», А.Х. Тарази, «Фунун ул балога», «Бахаристан» Абдурахмана Джами.

O'zbek mumtoz adabiyotida she'riy san'atlar haqida bir qancha risolalar yaratilgan bo'lib mavjud risolalarda she'riy san'atlar bilan bog'liq ba'zi istilohlar, ularning ta'riflari, tasniflanishi kabi masalalarda anchagina chalkashliklar, har xilliklar uchraydi.

She'riy san'atlarni tasniflash haqida A. Husayniyning "Badoyi'-us sanoyi" asarida shunday deyiladi: "Nutq go'zalliklari uch qism bila cheklanur ul jihatdinkim, har go'zallik yo faqat lafz go'zalligidur, yo faqat ma'no go'zalligidur yoxud lafzu ma'no yig'indisining go'zalligidur". Shu fikrga muvofiq mazkur risolada ham, adabiyotshunos T.Boboyevning "She'r ilmi ta'limi" risolasida ham she'riy san'atlar lafziy, ma'naviy va lafziyu ma'naviy (yoki ma'naviy-lafziy) san'atlarga bo'lingan. A.Hojiahmedovning "She'riy san'atlar va mumtoz qofiya" risolasida "Adabiyotshunosligimizda she'riy san'atlarni ma'naviy va lafziy san'atlarga ajratish an'ana bo'lib kelgan" deyiladi va shunga muvofiq tasniflangan.

Shu bilan birga qofiya bilan bog‘liq san’atlar ham alohida guruhlangan. Shayx Ahmad Xudoydod Taroziyning “Funun ul balog‘a” asarida esa she’riy san’atlar hech qanday guruhlarga ajratilmasdan, tasnifsiz berilgan.

Bundan tashqari mazkur risolalarda she’riy san’atlarni ma’naviy va lafziyga ajratishda, ya’ni ma’lum bir she’riy san’atni u yoki bu turkumga mansub etishda ham turlichaliklar bor.

Masalan, iyhom, jam’, tafriq, taqsim, jam’ va tafriq, jam’ va taqsim, takrir san’atlarni A.Husayniy ma’naviy, A.Hojiahmedov esa lafziy deb bergan. Tavshix san’ati esa aksincha A.Husayniyda lafziy, A.Hojiahmedovda ma’naviy deyilagan. Tanosub, tansiq-us-sifat, iqtibos, tazmin san’atlari A.Husayniyda lafziyu ma’naviy, A.Hojiahmedovda tanosub lafziy, qolganlari ma’naviy san’atlar sifatida guruhlangan. Yana ham sinchiklab ko‘rib chiqilsa, bu kabi tafovutlarni ko‘plab topish mumkin.

Qanday san’atlar lafziy, qanday san’atlar ma’naviy san’at deyiladi? Lafziy va ma’naviy san’atlar orasiga ularni bir-biridan farqlab beruvchi aniq chegara qo‘yib bo‘ladimi? Asosiysi, lafziy san’atlar ma’nodan yoki ma’naviy san’atlar shakldan ayri holda san’at bo‘la oladimi?

Avvalo, lafziy san’atlar haqida. Ular Husayniyda “...lafziy go‘zalliklarning asosi uldurkim, alfozni ma’noga tobi’ qilgaylar...” yoki T.Boboyevda “Lafziy san’atlar she’riy nutqdagi so‘zning tovushi bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘proq shakl hodisasi sifatida ko‘rinadi ... she’riy nutqqa bezak-ziynat berishga xizmat qiladi...” yoki A.Hojiahmedovda “... lafziy san’atlar asarning til jihatdan jozibadorligini, ohangdorligini ta’minlashga yordam beradi...” tarzida ta’riflanadi.

Ma’naviy san’atlar haqida “Badoyi’-us-sanoyi”da “... faqat ma’no go‘zalligidur...” deyilgan bo‘lsa, “She’r ilmi ta’limi”da “... she’r ma’nosini oshirishga ta’sir ko‘rsatishi, she’rning ma’nosи, g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘lgan san’atlar ...” ekanligini aytilgan. “She’riy san’atlar va mumtoz qofiya”da “Ma’naviy san’atlar asardagi g‘oyalarni yorqin ifodalash, lirik va epik timsollarni hayotiyroq gavdalantirish, ularning ma’naviy qiyofalari, his-tuyg‘ularini ta’sirchanroq aks ettirishga xizmat qiladigan...” san’atlar sifatida ta’riflangan.

Ushbu ta’riflarga ko‘ra go‘yo ikkala guruh san’atlar bir-biridan aniq farqlanayotganga o‘xshaydi. Aslida esa, lafziy va ma’naviy san’atlar haqidagi bu fikrlarning hech biri mantiqan birini ikkinchisidan farqlab beruvchi qoida darajasida emas. She’riy san’atlarning qonun-qoidalariiga, mohiyatiga diqqat qilinsa, mazmun va shakl orasiga xitoy devorini qo‘yib, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaganidek lafziy san’atlarni ham shakl hodisasi sifatida ma’nodan ayri holda san’at darajasida baholab bo‘lmaydi yoki aksincha, ma’naviy san’atlar ham avvalo shakl jihatdan namoyon bo‘ladi va ma’no bilan qorishik holda san’atni yuzaga keltiradi. Chunki “... badiiy shakl badiiy mazmunning biz qabul qilayotgan mavjudligi bo‘lsa, mazmun o‘sha shaklning ichki ma’nosи, mag‘zidir...” Bundan ko‘rinyaptiki, she’riy san’at shakl va mazmun birligidagina yuzaga chiqadi, faqat konkret holatda biri yetakchiroq mavqedha bo‘lishi mumkin. Badiiy asar, ayniqsa, she’riy asar, qachonki ma’no ham, shakl ham go‘zal bo‘lsagina u haqiqiy san’at hodisasi hisoblanadi. Bu haqda sharqu g‘arb mutafakkirlari ko‘p va xo‘b aytganlar.

Jumladan, Jomiyning “Bahoriston” asarida shunday misralar bor:

*She’r agar o‘utkir bo‘lib, har bir so‘zi chiqsa ravon,  
So‘zu mazmun bir-biriga bo‘lsa payvast jismu jon...*

Yoki Hazrat Navoiyda o‘qiyimiz:

*Nazm ham asl anga mani durur,  
Bo 'lsin aning surati har nedurur.  
Nazmki ham surat erur xush anga,  
Zimnida mani dog'i dilxush anga.*

Fikrlarimizga oydinlik kiritish maqsadida mazkur risolalarda tajnis va muqobala san'atlari qanday yoritilganini ko'rib chiqaylik. Ularning barchasida tajnis san'ati lafziy, muqobala san'ati esa ayrimlarida ma'naviy, boshqalarida lafziyu ma'naviy san'at deb berilgan.

Berilgan ta'riflarga ko'ra, tajnis "Ikki yoki andin ortiq lafzning nav'u turlari bayon etilgan ko'rinishlardin birida bir-biriga o'xshamog'idin iboratdur ..." yoki "... shoir bayt ichinda ikki kalima keltirurkim, bir-biriga suratta muvofiq va ma'noda muholif bo'lur..." yoki "... she'r baytida ma'no jihatidan har xil, ammo shakli bir xil yoki shaklan bir-biriga yaqin ikki so'zni keltirib, ular vositasida muayyan fikr, lavha yoki timsolni ta'sirchan ifodalash san'atidir..." yoki "... shakli bir xil, ammo turli ma'nolarni anglatadigan omonim (ikki yoki uch) so'zlarini muayyan poetik maqsadlarda qo'lllash usuli".

Ushbu ta'riflarni umumlashtirib qisqa va tushunarli shaklda tajnisni "shaklan bir so'zning ikki yoki undan ortiq o'rinda kelib, har o'rinda har xil ma'no ifodalashi" deb ta'riflash mumkin.

To'g'ri, bir lafzning shaklan aynan takrorlanishi ushbu san'atning yuzaga kelishida dastlabki asos bo'lyapti va shu bois ham u lafziy san'at sifatida sanalgan. Biroq san'at qachonki o'quvchining hissiyotlariga ta'sir qilib, uni xayratlantira olsagina, haqiqiy san'at hisoblanishi mumkin. Ta'kidlash joizki, tajnis san'atida o'quvchini hayratlantirayotgan asosiy narsa baytdagi shunchaki takrorlanib ishlatilayotgan so'zlarining shakligina emas, o'sha takrorlanayotgan so'zlarining ma'nosini hamdir. Quyidagi misollarga e'tibor bering:

*Ko'ngulda garchi hajring dog'i bordur,  
Valekin vasl umidi dog'i bordur.*

Yoki

*Yomgir yog'ar, shigalab yog'ar,  
Tomchilar tomchilar sochimga.*

1. Yoki
2. *Sochilgan sochingdek sochilsa siring...*

Keltirilgan misralarda tajnis san'atini yuzaga keltirayotgan asosiy omil "dog'i", "tomchilar", "soch" so'zlarining shunchaki takror ishlatilishi emas, balki "dog'i" so'zining "dog'" (xijron dog'i) va "yana", "tag'in" ma'nolarini; "tomchilar" so'zining "ko'pgina tomchi" va "tomchilaydi" (fe'l) ma'nolarini hamda "soch" so'zining "sochmoq" (fe'l) va "zulf" ma'nolarini ifodalayotganidir.

Yuqorida aytilgan chalkashliklarni muqobala san'ati misolida ham kuzatishimiz mumkin. "Badoyi'-us-sanoyi" da o'qiymiz: "Miftox" sohibi deputur: muqobala uldurkim, ikki yoki andin ortiq muvofiq va alarga zid, ya'ni muqobil nimaning zikrin jam qilursen...". Ya'ni, muqobala bo'lishi uchun baytda ikki va undan ortiq antonim so'zlar juftligi ishlatilishi lozim. Keltirilgan misollardan ham buni ko'rish mumkin. "She'riy san'atlar va mumtoz qofiya"da muqobala "... qarshi kelish" ma'nosini ifodalaydi va she'r baytlarida bir-biriga zid tushunchalarni anglatuvchi so'zlarini keltirib, ular vositasida muayyan bir g'oya, fikrni ta'sirchan ifodalash san'ati" ekanligi aytilgan.

O'rni kelganda, ushbu risolada tazod san'atiga berilgan ta'rifga ham e'tiboringizni qaramoqchimiz: "...(tazod) "zid qo'yish", "qarshilantirish" manolarini ifodalaydi. Baytda ma'no jihatdan o'zaro zid, qarama-qarshi bo'lgan so'zlarni qo'llab, ta'sirchan badiiy timsollar, lavhalar yaratish..." san'atidir. Ko'rinish turibdiki, muqobala va tazod san'atlariga berilgan ta'riflarda aytarli farq sezilmaydi. Buni quyidagi baytning har ikkala san'atga misol tariqasida keltirilgani ham tasdiqlaydi:

*Zahri hajrini berur har dam manga bu, vaslining  
No 'shini in 'om etar bisyor mandin o 'zgaga.*

Baytdagi zahr-no'sh, vasl-hajr, manga-o'zgaga so'zлari san'atni yuzaga keltirayotgani aytilgan. Muqobala va tazod sanatlarining qanday farqi bor? Ular aynan bir narsaning ikki xil nomlanishimi yoki lafziy jihatdan tazod, ma'naviy jihatdan muqobala deb ataladimi? Bu savollarga aniq javob yo'q. Agar tazodda antonim so'zlar juftligi bitta, muqobalada esa ikki yoki undan ortiq bo'ladigan bo'lsa, keltirilgan aksariyat misollar bu fikrga muvofiq emas, ya'ni deyarli barcha misollarda ikki va undan ortiq bir-biriga zid ma'noli so'zlar ishlatalgan. Jamladan, "Funun-ul-baloga"da tazod "... ikki narsa kultururlarkim, biri birining ziddi bo'lgay..." deb ta'riflangani holda Lutfiyning:

*Raqib kelgay, dedim, yor keldi yolg 'uz,  
Yamon sog 'inmaguncha yaxshi kelmas,-*

bayti keltirilgan. Bu baytda ham raqib-yor hamda yamon-yaxshi so'zлari qarama-qarshi ma'noli ikki juftlikni hosil qiladi. Bizningcha, she'riy san'atlarga berilgan ta'riflarda bu kabi chalkashliklarning mavjudligi ushbu masalani alohida tadqiqot obyekti sifatida maxsus o'rganishni zaruratga aylantiradi. Xuddi shu gapni tasniflash masalasida ham aytish mumkin.

Zero, yuqorida ko'rdikki, muqobala va tajnis san'atlarining yuzaga chiqishida so'zlearning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari (omonim va antonimlar) asos bo'layotir. Har ikki san'atda ham so'z shakllari zikr qilinishi hisobiga yuzaga chiqayotgan ma'no hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shunday ekan, ulardan birini lafziy, ikkinchisini ma'naviy san'at deyilishida bir oz mantiq buziladi. Demak, she'riy san'atlarni tasniflashda "lafziy" va "ma'naviy" xususiyatlarni asos qilish u qadar to'g'ri emas. buni Atoulloh Husaynining tubandagi fikri ham tasdiqlaydi: "...umuman borcha go'zalliklarning asosi uldurkim, nutq ul tarzda ado etilgaykim, ma'noni anglashga, aning latofati, tarkibi va sog'lomligiga hech bir xalal yetmagay.

Asos ul emaskim, alfozga husnu ziynat bermakka say' qilgaylaru ma'noga xalal yetur holdin ko'z yumgaylar yoxud aksincha, xolis ma'no bayon etib, husni ado tarikiga yulamagaylar...". Bundan anglashiladiki, nutqda ma'noni go'zallashtirish uchun shaklga putur yetkazmaslik, nutq shakliga "husnu ziynat bermak"ni haddidan oshirgan holda ma'noga xalal bermaslik lozim.

Ya'ni, ma'nosiz go'zal nutq ham, "xolis ma'no bayon etib, husnu ado tarikiga yulamagan", ziynatlanmagan nutq ham san'at emas. Albatta, biz adabiyotshunosligimizda an'anaga aylanib ulgurgan she'riy san'atlarni "lafziy - ma'naviy" tarzida tasniflash amaliyotini butkul yo'qqa chiqarish fikridan yiroqmiz.

Biroq adabiy-nazariy tafakkurning bugungi darajasi nuqtai nazaridan qaralsa, bu xil tasniflashning ojiz tomonlari tobora yaqqol ko‘zga tashlanib borayotgini ham sir emas. Shunga ko‘ra, she’riy san’atlarni nazariy tasniflash masalasi bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb muammolaridan biridir.

Bu o‘rinda, bizningcha, she’riy san’atlarni tasniflashdan asosiy maqsad ularni tadqiq va tadbiq qilishni osonlashtirish ekanligi yodda tutilishi lozim.